

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

QO'QON XONLIGIDA MALLAXON DAVRI

Shukrullo Muzaffarovich Ruziyev

The student of the Kokand SPI, History faculty

Annotatsiya:

Ushbu maqolada biz XIX asrdagi Qo'qon xonlaridan biri hisoblangan Mallaxon hayoti va uning hukmronlik yillari haqida shu davrda yaratilgan manba va adabiyotlardan misollar keltirgan holda tahlil etamiz. Ma'lumki, Xudoyorxon Musulmonqul ta'siridan va qipchoqlar nizolaridan ozod bo'lib, mustaqil xon sifatida hukm sura olmaydi. Mahalliy hokimlar turli viloyatlarda akasi Mallabek esa, Toshkentda hokimiyatni egallab unga qarshi chiqa boshlaydi. Bunda Mallaxonga ta'sir etib turgan omillar va uning o'z inisiga qarshi qilib qo'ygan harkatlar ham faktik ma'lumotlar bilan yorilgan.

Kalit so'zlar: Mallaxon, Qo'qon xonligi, qo'zg'olonlar, Toshkent, tarixiy, Buxoro, Xudoyorxon, Xo'jand.

Qipchoqlarning zulmkor siyosati tugatilgan bo'lsada, Qo'qon xonligida ichki o'zaro taxt uchun bo'lgan kurashlar tinchimadi. Aksincha, yana alanga olib, xonlar tez-tez almashinib turdi. Xudoyorxon Musulmonqul nazoratidan qutulib, o'z xohishicha ish ko'rdi, xalq ahvoliga qiziqmay qo'ydi. Xonlikning turli viloyatlarida isyonlar alangasi zo'raydi. Ayniqsa, 1858-yilgi qozoqlar qo'zgoloni keng tus oldi. Uni bostirishga Xudoyorxonning akasi Mallabek boshchiligida qo'shin jo'natildi. Mallabek o'zi uchun qulay tadbirlar ko'rdi, soliqni ikki marotaba qisqartirdi va qozoqlar o'lkasini tinchlantirdi. Natijada u qozoqlar o'rtasida obro' qozondi. Ko'p vaqt o'tmay Mallabek taxtga da'vogarlik qilib, Xudoyorxonni Buxoroga qochishga majbur etib, o'zini xon deb e'lon qildi. Mallaxon o'z xukmronligi davrida (1858-1862) bir necha islohot o'tkazdi, shaharlarning mustahkamligini oshirdi, mudofaani kuchaytirdi. U chor Rossiyasining harbiy kuchini yaxshi bilganidan, mas'uliyat his qilib, o'z fuqarolariga Rossiya bilan bo'lgan chegarani buzishni qat'iy man etdi va bunga rioya qilmaganlarga hatto o'lim jazosi ham belgiladi.¹ 1857-yili Buxoro amiri bosqinchiligiga qarshi bo'lgan xalq urushga shaylanib, Xo'jand va Qo'qon atroflarini mudofaa vositalari bilan o'rab oldi. Lekin shu tashqi istilolar sharoitida

¹ Xudoyorxonxoda. Anjuman at-tavorix. Toshkent.: 2014. [B, 316]



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

xonlik taxti uchun Mallabek o'z kurashini qayta boshlaydi. O'sha zamon tarixchisi shunday yozadi: "Xudoyorxon davrida qo'zg'olon o'z hadiga yetdi, Xo'qondi latif saltanati va amirligida oshublar va buzg'unchilik paydo bo'ldi. Amirlar va vuzaro hukumatda umuman o'z ishlari bilan mashg'ul bo'lmasdilar. Natijada ko'tarilgan isyonlar oqibatida davlat ishlari inqirozga duch keldi, tinchlik va rohat qushi anqoga o'xshab noma'lum tomonga uchib ketdi. Jaholat va bo'ysinmaslik ra'iyat va aholining sharaf eshiklariga yopishdi. Xayot qiyinchiliklaridan o'lka va aholi o'rtasida qahr-u g'azab olovi yondi. Bolaligidan Xudoyorxon davlat tug'ini razillar qo'liga berib, uning oqibatlarini bilmasdi" Amir Nasrulloh qo'lidan Xo'jandni qutqarish, akasi o'rniga xon bo'lishni maqsad qilib qo'ygan Mallaxon isyon ko'tardi. Xudoyorxon uni tutib, o'ldirmoqchi bo'lganida Mallabek G'uljaga qochib, Alimbek ibn Hasanbiy ibn Shoh Mirzobiy qirg'iz (Aliquli) oldiga keladi. Bu yerda qirg'iz jamoalarining rahbarlari Sayidbek dodxoh, Po'lat dodxoh, Cho'tan, Mulla Murod, Qo'ychibiy va boshqalardan madad olib, Qorasuvga, keyin, Andijonga keladi va katta qo'shinni jamlab, Rishtonnnig janub tomonida joylashgan Xo'ja Ilg'or mavzesiga qo'shin tortdi. Bu orada amir Nasrulloh birdan Xo'jand qamalini to'xtatib, Buxoroga qaytadi. Xudoyorxon Mallaxonga zarba berish uchun Qashg'ar qishloqqa yaqin bir joyga joylashdi. 1858-yili 25-oktyabrda aka-uka o'rtasida jang bo'lib, Xudoyorxon tor-mor bo'ladi. Xudoyorxon kam askar bilan Qo'qonga qochib kelib, O'rdaga yashirinadi. Mirzo Ahmad o'z qo'shini bilan Buxoroga ketadi. Mallaxon kelib Qo'qonni qamal qiladi. Qo'rshovning 21- kunida Xudoyorxon sulh tuzmoqchi bo'lib, Mallaxon oldiga eshon shayx ul-islom Sulaymon xo'jani, Erkabiy dodxoh yuz va Qanoatshohni yuboradi. Lekin ularning ketlaridan Andijon hokimi So'fibek, Marg'ilon hokimi Shox Murodbek, Qosim mingboshi, Shodmon xo'ja dodxoh, Ya'qubbek ponsadboshi, Yo'lchibek ponsad, Muhammadnazar parvonachi To'raqo'rg'on va Namangan qo'shini bilan chiqib Mallaxonga qo'shilishadi. Buni eshitgan Xudoyorxon ukasi Sulton Murodbek bilan Xo'jandga keyin Buxoroga qochib ketadi. 1858-yil 13-noyabr Mallaxon Qo'qonga kirib taxtga o'tiradi. Mirzo Olim Mahdum hoji "Tatixi Turkiston" asarida shunday jumlar keltiradi: "Vaqtiki, Mallaxon xonlik taxtiga o'lturgandin boshlab, yovvoyi va sahronishin qirg'iz, qipchoqlarga xos o'rdadin joy berib, doimo alarni o'ziga hamsar va hamnishin [yaqin] qilib, hukmronlik va vazirlik ishlarini alarga ta'fiz aylab, eski va qadimiy vazir va nadimlarni ko'zdin [uzoq] tashlab, hukumatdorlik ishlaridin bi-l-kulli beparvo bo'lub, mamlakatdorlik ishlarining hammasini beilm va bedonish sahroyi qirg'iz va qipchoqarga topshiribdur, alar o'z ixtiyorlaricha ish qilib, mamlakatdorlik



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ishidin mutlaqo g'ofil va bexabar bo'lub, fuqarolarga xohlaganlaricha jabr va zulm ko'rguzub, atrof-jonib va sarhadlaridin xabardor bo'lmay, julusning ikkinchi yilida rusiyalar Olmati shahri ilan atrof elatiasini istilo qilibdur".² Ko'p vaqt o'tmay Mallaxon ham O'ratepa va Jizzaxga yurish qiladi. 1859-yil baxorida amir Nasrullo O'ratepa va Jizzaxni egallab, Xo'jandga yaqinlashib, Nov qal'asiga Qanoatshohni hokim etib tayinlaydi. Lekin Qanoatshoh keyinroq Qo'qon hukumatini tan olib, o'zi poytaxtga keladi. Mallaxon Qanoatshohni amirlashkar etib, Xudoyorxon va Sulton Murodbekka qarshi Qoratepinga yuboradi. U G'arm qal'asini muhofaza qilib, Xudoyorxonni u yerdan ketishga majbur qiladi. Xudoyorxon Jizzaxga keladi. Shunda Mallaxon 1860-yili 24-yanvarida Jizzax ustiga Sarimsoq qurama bilan Dushaboy ponsadni yuboradi. Mirza Rabot mavzesida Xudoyorxon bilan jang bo'ladi. Xudoyorxon qo'shini mag'lub bo'lib, 76 kishi asirlikka olinadi. Asirlar poytaxtga olib kelinib, qatl etiladi. Shu yili Xitoy davlatiga Abdulfattoh Maxdum elchi qilib yuboriladi. Lekin uni Yorkand hokimi 27 nafar hamrohlari bilan o'ldiradi. Ikkinchi marta yuborilgan Mahdum Konibodomiy boshchiligidagi elchilar Qoshg'ardan qaytarib yuboriladi. 1860-yil 23-martda Mallaxon yana qo'shin boshliqlari: O'tabbiy qo'shbegi-qipchoq, Sayidbek dodxoh qirg'iz (Xo'jand hokimi), Nov hokimi mullo Qosim qirg'iz, Obliq hokimi Muhammadamin mirzo, Irisali ponsad va Dushaboy ponsadlarga O'ratepa viloyatini bosib olishni buyuradi. Qoratepa yaqinidagi Aylonlik mavzeida O'ratepa lashkari Bozorboy to'qsabo boshchiligida ularga hujum qilib, qattiq zarba beradi. Sayidbek dodxoh va Irisali ponsadlar asirlikka tushadilar, qolganlar Xo'jandga qochib kelishadi. Bu voqeani eshitgan Mallaxon O'shdan Xo'jandga keladi. Mallaxon hukmronligi davrida ruslarga qarshi bir necha yurishlar tashkil etiladi. Qo'qon xonligining chor qo'shinlari tomonidan sekin-asta bosib olinishjarayonini o'zbekistonlik ko'plab tarixchi olimlar tadqotlarida yoritishgan. Ammo Mallaxon davridagi diplomatik aloqalar haqidagi tadqiqotlar juda kam.

R. N. Nabiyev va H. N. Bobobekovning monografiyalarida V. Ishquvatovning dissertatsiyasida Mallaxon davrida Qo'qon-Rossiya diplomatik munosabatlari haqida, jumladan, chor generallari tomonidan Qo'qon xonligiga qarashli qal'a va uningatrofidagi hududlarning qurol bilan bosib olinishi, Mallaxon Rossiyaga o'z elchilarini jo'natishga harakat qilganligi to'grisida qisqa ma'lumotlarni bera dilar.1860-yil iyul-avgust Mallaxon Toshkentga kelib, uning hokimi Qozoqboy

² Mirzo Olim Mahdum hoji "Tatixi Turkiston". Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2009. [B, 130]



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

oqsoqolni Qurama hokimi Normuhammad qo'shbegi bilan birga ruslarga qarshi To'qmoq qal'asiga yuboradi. Qo'qon qo'shini Qanoatshoh boshchiligida va Andijon sipohi Olimbek dodxoh boshchiligida bu yurishda ishtirok etadi. Lekin ruslar bilan jang qilayotgan vaqtda boshliqlar o'rtasida nizo chiqib, Qo'qon sipohlaridan boshqa qo'shin Toshkentga qaytib keladi. To'qmoq qal'asi yaqinida Qanoatshoh ham mag'lub bo'ladi. Amir Nasrulloh o'limidan so'ng 1860-yili Abdulg'afur Nov qal'asidan O'ratepaga hujum qilib uni oladi. Lekin, mustaqillikka da'vo qilgan bu hokim ham Mallaxon qarshiligiga duch keladi. Amir Muzaffar 1860-1885-yil Mallaxonga qarshi Ibrohim hayol mang'itni yuboradi. Mallaxon esa Marg'ilon va Yormozor hokimi Alimquli eshikog'asi qirg'iz-qipchoqni safarbar etadi. Bu orada Abdulg'afforbek yuz, Ibrohim Xayol bilan til biriktirib Buxoro qo'shinini shaharga kirgizadi. Lekin Alimquli ularni chiqib ketishga majbur qilib, 560 nafar Buxoro lashkarini asir oldi. Amir Muzaffar bundan g'azablanadi, Ibrohim Xayolni Sherobodga va Abdulg'afforbekni Chorjo'yga surgun etib, O'ratepaga Barotbekni hokim qilib yuboradi. Buni eshitib Mallaxon shaharga qaytib, 80 kun uni muhosira qilganida, xalk tazyiqi ostida Barotbek majbur bo'lib, Qo'qon itoatiga kiradi. Bu orada Shahrisabz beklari qo'zg'olon ko'tarib, hukumatni qayta tiklash uchun Mallaxondan madad so'raydi. Mallaxon amir diqqatini o'ziga tortmoqchi bo'lib, Jizzax va Samarkand viloyatiga hujum qiladi. Buni eshitib amir Muzaffar Shahrisabz yurishini qoldiradi, Samarqandga va u yerdan Yangi qo'rg'onga keladi. Mallaxon amir oldiga Boboxo'ja shayx ul-islomni elchi qilib yuboradi. Muzokaralardan so'ng amir Muzaffar va Mallaxon o'rtalarida sulx tuzilib, ikki davlat chegarasi aniqlanadi. Qo'qonning g'arbiy chegarasi Qozoqbuloq mavzesidan o'tadigan buladi. Mallaxon bu shartni Xo'jandga kelib qabul qiladi va shartnomaga muhrini bosadi. 1862 yili Qanoatshoh Avliyoota va Pishpakka yurish qilib, aholidan katta zakot olgach, Toshkentga qaytadi va Mallaxon buyrug'i bilan Jo'lak atrofida ruslarga qarshi yurish qiladi. Lekin u Jo'lak yaqindagi jangda mag'lub bo'lganidan so'ng Toshkentga qaytadi. Qanoatshoh bu mag'lubiyatdan keyin, Mallaxondan uni Toshkent hokimligidan olinishini talab qiladi, lekin Mallaxon Qanoatshohni Chordaraga kelgan Xudoyorxonga qarshi jo'natadi. Qanoatshoh Xudoyorxonni ta'qib qilib, Yom, Zomin va O'ratepaga keladi, keyin Qo'qonga o'tib, yana Toshkentga qaytadi. Shu o'rtada O'ratepa hokimi Barotbek isyon ko'taradi. Ammo O'ratepa xalqi unga qarshi chiqib, o'z yaqinlari bilan Buxoro amirligiga tobe bo'lgan Mastchohga chiqib ketishga majbur qilishadi. Mallaxon O'ratepa mulkini



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th February, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Dushaboy dodxohga beradi. 1862-yil 24- fevrada Mallabek suiqasd natijasida o'ldiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xudoyorxonozoda. Anjuman at-tavorix. Toshkent.: 2014.
2. Mirzo Olim Mahdum hoji "Tatixi Turkiston". Toshkent.: Yangi asr avlodi, 2009.
3. Bobobekov H. "Qo`qon tarixi" Toshkent.: Fan, 1996.



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

